



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2024-yil yanvar-noyabr*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi*

Тел. 76-225-65-74

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-noyabr oyi, foizda)




2024-yil 1-dekabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 355 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 71 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 284 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-noyabr, mlrd so'mda)



So'nggi 5 yillik (2020- 2024-yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 112,8 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2023- 2024-yillar)



2024-yilning yanvar-noyabr oyida o'sish sur'ati **108,9 %** ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-noyabr oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 21 129,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 108,9 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 732,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 117,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 20 397,1 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 108,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 812,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 115,9 %) tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2024-yil yanvar-noyabr oyi)**

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar-noyabr oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	21129,7	108,9
Termiz sh.	3862,8	110,1
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	822,3	111,8
Angor	1012,4	109,7
Bandixon	302,6	111,3
Boysun	849,2	109,8
Muzrabot	882,5	108,5
Denov	4380,7	106,1
Jarqo'rg'on	1194,0	110,4
Qumqo'rg'on	840,3	111,6
Qiziriq	874,4	108,9
Sariosiyo	723,4	109,5
Termiz	395,7	108,0
Uzun	938,0	111,0
Sherobod	1235,2	108,9
Sho'rchi	2145,4	108,1

2024-yilning yanvar-noyabr oyida 2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan viloyatning Oltinsoy (111,8 %), Qumqo'rg'on (111,6 %) va Bandixon (111,3 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani 21,4 % bilan 4 380,7 mlrd so'mni tashkil tdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Bandixon tumani 1,5 % bilan 302,6 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'm
Denov	4 380,7
Termiz sh	3 862,8
Sho'rchi	2 145,4
Sherobod	1 235,2
Jarqo'rg'on	1 194,0
Angor	1 012,4
Uzun	938,0
Muzrabot	882,5
Qiziriq	874,4
Boysun	849,2
Qumqo'rg'on	840,3
Oltinsoy	822,3
Sariosiyo	723,4
Termiz	395,7
Bandixon	302,6




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-noyabr oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 20 397,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 8,7 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 96,5 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 17,6 % ga oshdi va 732,6 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 3,5 % ulushiga to'g'ri keldi.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qiziriq (99,4 %), Boysun (99,4 %) va Angor (99,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 3,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz sh (6,1 %), Denov (5,4 %), Sherobod (2,6 %) va Jarqo'rg'on (2,3 %) tumanlarida kuzatildi.




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)



2024-yilning yanvar-noyabr oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 7 279,8 ming. so'mni (2023-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 106,9 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Termiz shahri (18 954,0 ming. so'm), Denov (10 331,7 ming. so'm) va Sho'rchi (9 299,6 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-noyabr), foizda

Название диаграммы



- Dehqon bozorlari



- Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2024-yil yanvar-noyabr)**

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- noyabr oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	3815,2	115,9
Termiz sh.	309,9	159,7
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	367,8	124,0
Angor	120,0	93,8
Bandixon	193,2	110,3
Boysun	255,3	127,2
Muzrabot	375,7	112,3
Denov	441,1	117,6
Jarqo'rg'on	209,3	106,7
Qumqo'rg'on	202,6	109,9
Qiziriq	284,2	124,3
Sariosiyo	278,7	113,4
Termiz	79,2	96,7
Uzun	282,2	119,8
Sherobod	126,8	103,9
Sho'rchi	289,2	98,5


qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda
(2024-yil yanvar-noyabr)**















**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm
(2024-yil yanvar-noyabr)**



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-noyabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 815,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 115,9 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1 869,4 mlrd so'mni (122,2 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1 945,8 mlrd so'mni tashkil etdi (110,4 %).




2024-yilning yanvar-noyabr oyida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 869,4 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (963,2 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.


Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 963,2 mlrd so'm  51,5 %	Non va non mahsulotlari 193,2 mlrd so'm  10,3 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 178,3 mlrd so'm  9,6 %
Tovuq go'shti 54,6 mlrd so'm  2,9 %	Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 100,4 mlrd so'm  5,4 %	Tuxum 60,2 mlrd so'm  3,2 %
Ziravorlar 39,6 mlrd so'm  2,1 %	Sut va sut mahsulotlari 52,8 mlrd so'm  2,8 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 22,7 mlrd so'm  1,2 %
Tuzlamalar 36,2 mlrd so'm  2,0 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 35,4 mlrd so'm  1,9 %	Nooziq-ovqat tovarlar 132,8 mlrd so'm  7,1 %


2024-yilning yanvar-noyabr oyida, respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 975,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 1 389,1 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 534,8 mlrd so'mni, otlar – 16,7 mlrd so'mni, parrandalar – 5,2 mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar
909,7 mlrd so'm	272,1 mlrd so'm	207,3 mlrd so'm
 46,7 %	 14,0 %	 10,6 %


Qo'ylar
451,5 mlrd so'm
 23,2 %

Otlar
16,7 mlrd so'm
 0,9 %

Echkilar
83,3 mlrd so'm
 4,3 %

Kurka, o'rdak, g'oz
2,1 mlrd so'm
 0,1 %

Tovuqlar
2,2 mlrd so'm
 0,1 %

Quyonglar
0,9 mlrd so'm
 0,1 %

Qushlar
mlrd so'm
 %



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024-yil 1-dekabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 543 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 542 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-noyabr)

	Jami mlrd so'm	2023- yil yanvar- noyabr oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	7202,4	110,4
Termiz sh.	198,3	107,6
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	14,0	115,8
Angor	15,5	110,1
Bandixon	4,7	123,4
Boysun	12,2	112,1
Muzrabot	12,8	117,8
Denov	85,0	105,5
Jarqo'rg'on	27,8	102,8
Qumqo'rg'on	12,3	108,6
Qiziriq	10,0	106,6
Sariosiyo	28,0	119,4
Termiz	39,9	109,0
Uzun	14,8	112,7
Sherobod	24,3	116,7
Sho'rchi	20,9	119,0

2024-yilning yanvar-noyabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 7 202,4 mlrd so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 10,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi..


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd so‘m	Ulushi, foizda
Surxondaryo viloyati	1720,6	100,0
Termiz sh.	598,4	34,8
tumanlar:		
Oltinsoy	4,9	0,3
Angor	32,6	1,9
Bandixon	2,5	0,1
Boysun	2,9	0,2
Muzrabot	1,4	0,1
Denov	866,2	50,3
Jarqo‘rg‘on	85,2	4,9
Qumqo‘rg‘on	25,2	1,5
Qiziriq	16,6	0,9
Sariosiyo	7,9	0,5
Termiz	28,0	1,6
Uzun	1,1	0,1
Sherobod	10,2	0,6
Sho‘rchi	37,5	2,2


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Denov tumani (866,2 mlrd so‘m) va Termiz shahri (598,4 mlrd so‘m) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd so'm)




2024-yilning yanvar-noyabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 1 720,6 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,9 % ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 493,7 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 59,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 1 226,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati –92,8 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'atlari, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024-yilning yanvar-noyabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 8 711,1 mlrd so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 7,5 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

10,3 %

897,2 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

89,7 %

7 813,9 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 7 813,9 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 112,1 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 89,7 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-noyabr)

	Jami mlrd so'm	2023- yil yanvar- noyabr oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	8711,1	107,5
Termiz sh.	1262,4	104,7
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	155,5	108,9
Angor	131,5	102,3
Bandixon	397,0	105,8
Boysun	25,9	110,8
Muzrabot	391,0	171
Denov	1845,6	107,7
Jarqo'rg'on	150,2	97,9
Qumqo'rg'on	227,8	75,5
Qiziriq	38,6	99,2
Sariosiyo	124,3	111,6
Termiz	334,8	118,2
Uzun	60,9	58,1
Sherobod	302,7	138,7
Sho'rchi	345,2	77,1

2024-yil 1-dekabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 393 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 19 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 374 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Oltinsoy Angor (192,6 %) , Oltinsoy(158,8 %) va Denov (155,1 %) tumanlarida kuzatildi.